

"DE'VONI HIKMAT" ASARIDAGI SIFATLAR TAHLILI

*Termiz davlat universiteti Özbek filologiyasi fakulteti 3-bosqich talabasi
Nomozova Yulduz*

Annotatsiya

Ushbu maqolada Ahmad Yassaviy qalamiga mansub "De'voni hikmat" asarida keltirilgan hikmatlarning tahlili va asarda keltirilgan sifatlar sözga olinadi. Hikmatlar yösinida asarning til xususiyatlari ochib beriladi.

Kalit sózlar: hikmatlar, leksika, sıfat, asar, talqini, ma'noviy tahlil

Kirish

"Devoni hikmat" — Ahmad Yassaviyning she'rlarini o'z ichiga olgan majmua. Asl nusxasi saqlanmagan. 19-asrdan boshlab Toshkent, Buxoro, Kogon, Qozon, Istanbul sh.larida bir necha bor nashr etilgan. Mavjud qo'lyozma va bosma nusxalar bir-biridan farq qiladi. Ahmad Yassaviy „Devoni hikmat“ ni shu nom bilan kitob tarzida tartib bermagan. Uni Yassaviyning murid va izdoshlari tuzishgan. Ya'ni ustozlarining hikmatlarini bir joyga jamlab, unga „Devoni hikmat“ nomini berishgan. Yassaviylik tariqatiga kirganlar uchun „Devoni hikmat“dagi she'rlarni o'qib yod olish, hatto qobiliyati yetadiganlar uchun shunday shaklda she'rlar yozish tariqatning daxlsiz talablaridan hisoblangan. Yassaviylik tariqati ko'plab shoirlarni yetishtirib chiqarishda o'ziga xos məktəb vazifasini bajargan. „Devoni hikmat“dagi hamma she'rlar ham Yassaviyga mansub emas. Unda Yassaviy izdoshlarining ijod namunalari ham kiritilgan. Asar poetik jihatdan xalq qushiklariga yaqin. Shu bois u xalq ommasi orasida keng tarqalgan. Natijada Yassaviy hikmatlari og'izdan-og'izga kuchib, kitobdan-kitobga o'tib, o'z asl tilini va uslubini o'zgartirgan, ammo ularning asosiy g'oyaviy mazmuni saqlanib qolgan. „Devoni hikmat“ islom dini asoslardan bahs etuvchi, shariatning ahkomi va ahli sunnatning aqidalaridan saboq beruvchi, tasavvuf sirlari va tariqatning odobu arkoni yoritilgan qomusiy harakterdagی asardir. Unda ilohiy ishq g'oyasi va didaktik mazmun yo'nalishi yetakchilik qiladi. „Devoni hikmat“da munojot, qasida, munozara janri talablariga muvofiq keladigan she'rlar bilan bir qatorda, „Me'rojnama“ (Hazrat Muhammad alayhissalom madh etilgan manzuma) ham o'rin olgan. Yassaviy tariqati turli davrlarda va turli joylarda Ahmad Yassaviyning ko'plab shogirdlari va muxlislari tomonidan davom ettirilgan. Sulaymon Boqirg'oniy, Bobo Mochin, Shamsiddin O'zgandiy Xudoydod, Qul Nasimiy, Ubaydiy va b. tasavvuf shoirlar „Devoni hikmat“ ta'sirida bir qator asarlar yozgan. Shu bois „Devoni hikmat“ faqat Yassaviyniki bo'lmay, Yassaviy tariqatining bir necha asrlik umumiylar bir adabiy yodgorligi hisoblanadi. [1] Yassaviya tariqatining asosiy shiori - shariatsiz tariqat, tariqatsiz ma'rifat, ma'rifatsiz haqiqat bo'lmaydi. Bu ta'limot avvalo Qur'oni Karimga

keyin hadisi shariflarga tayangan holda ishlab chiqilgan. Yassaviya tariqatining asosiy mazmuni unga rioya qilish mezonlari “Devoni hikmat” ya’ni “Hikmatlar devoni” orqali belgilanadi.[2] Ushbu asarning muallifi tariqat yo’lboshchisi Ahmad Yassaviy hisoblanadi.

Asosiy qism

Xoja Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat"i dunyoga kelishi bilan turkiy xalqlar o'zining mustaqil tariqat kitobiga, tom ma'nosi ila Ma'rifat, Haqiqat, Ruhoniyat qomusiga sohib millat o'laroq e'tirof etilgan.[3] Ahmad Yassaviydan keyingi turkiy xalqlarning tarixi -ma'naviy-axloqiy hayotda yangi yo'nalish, yangi ilohiy nuqtai nazar shakllangan, komil inson haqidagi tasavvurlar to'la oydinlashgan tarix erur. Zero, arab va fors tasavvuf tushunchalarini milliy ehtiyojga muvofiq ravishda o'zlashtirish va favqulodda sodda,xalqona talqinlarni yaratishni ham tarix Ahmad Yassaviy zimmasiga yuklagan edi.Mashhur usmonli turk shoiri Yahyo Kamol atoqli olim Muhammad Fuod Ko'prulizodaga: "Ahmad Yassaviy kimdir? Merosining sir-asrori nedur? Shuni bir chuqur o'rganing. Milliyatimizning asoslarini ana o'sha joyda topursiz!", - degan ekan.Ko'prulizoda shundan so'ng ishga kirishib, "Turk adabiyotida ilk mutasavviflar" nomli tadqiqotini yozgan.[4] Bu kitobning hanuzgacha mashhurligi va qiziqish bilan o'qib kelinayotganligi ham tasodif emas. Unda muallif Ahmad Yassaviyning turkiy xalqlar orasida ilk daf'a tasavvuf maslagini vujudga keltirib, asrlar mobaynida ruhoniyatda hukmronlik qilganligini yaxshi yoritib bergen.So'fi Olloyor avlodlarga Ahmad Yassaviydan "ulug' bir kitob" meros qolganligini aytadi. Bu - hikmatlar majmuasi ekanligi aniq. Ammo ushbu nodir kitobning qadimiy qo'lyozmasi saqlanmagan. Saqlanib qolgan bo'lqa-da, haligacha topilgani yo'q.[4] 12. Muammolarning muammosi ana shu. Ahmad Yassaviy adabiy shaxsiyati va ijodiyotiga ishtibohli qarashlar,adolatsiz va bir yoqlama tanqidlar, bir-biriga zid va mutlaqo teskari munoqashayu munozaralar - bularning deyarli hammasi asosan shu zaminda paydo bo'lgan. Biroq buyuk Yassaviy ijodiyoti ta'qiqlash bilan to'xtab qoladigan, tanqid va tahqirlashdan ahamiyatini boy beradigan bir ijod emas. Aksincha, u hech qanaqa qarshilik va zo'ravonlikka mag'lub bo'lmaydigan she'riy merosdir. "Devoni hikmat" insonni nafsparastlikdan, ma'rifatsizlik va yirtqichlashuvdan muhofaza etadi. "Devoni hikmat" odam farzandini shaytoniy hiylalar, hayvoniy quturishlardan asraydi. Bu bebaho asar hirsu havoga berilib "odamiyatni pok-pokiza yeb" qo'yish kulfat va musibatlaridan ogohlantiradi. Hamma gap uni qanday o'qish va qanday anglash, anglabgina qolmasdan Yassaviy so'zlariga amal ham qila bilishdadir. Agar "Devoni hikmat"ni mutolaa qilib, ozmi-ko'pmi o'z ahvolimizni tushunsak, undagi umumiyl ruh, mohiyat va ma'rifat shavqi qaysi bir darajada aqldan jaholatni, qalbdan g'aflatni chetlashtirsa - urinishimiz besamar ketmagan bo'ladi. Demak, biz tosh chaynasak-da, haqiqatning kuch-quvvati, ishqning hayotbaxsh zavqiga suyanib, inonib yashashga urinmog'imiz joiz. Quvonarlisi shundaki, so'nggi o'n-o'n besh yil mobaynida

"Devoni hikmat"ni xalqqa qaytarish, keng kitobxonlar ommasiga yetkazishda xayrli ishlar amalgalashirildi. Asar Toshkentda, Turkiyada, Moskva va Qozog'istonda chop etildi. Balki "Devoni hikmat" muhiblari, xususan, din, tasavvuf, adabiyot mutaxassislari, tarixchi va tilshunos olimlarning fikr-mulohazalarini ham eshitishdir. Chunki to'plamdag'i qator to'rtliklar Yassaviyniki ekanligi shaxsan menda ishtiboh uyg'otdi. Bunday shub-ha va ishonchszilik boshqalarda ham tug'ilishi mumkin. Lekin Nodirxon Hasan zarur, xayrli, nainki adabiyot, fan, xalq uchun ham muhim bir ishga qo'l urganligiga inonmaslikning iloji yo'q. Zero, "Devoni hikmat"ning hech bo'limganda, qiyosiy-yig'ma matnini tuzmaslik - yassaviyshunoslik istiqboliga loqayd qarash, bir paytlardagi besamar tortishuv, g'arazli iddao va johilona munozaralarga yana yon bermoqdir. Asardagi sifatlar talqinini tahlil aylaydigan bolsak ushbu hikmat misolida körib ötmog'imiz kerak. Masalan:

Gunohimdin uyotlig'man, oting Rahim,
Rahmatingdin qatra bersang, oting Karim,
Dargohinga yig'lab keldim, Hayyu Qadim,
Rahmon egam, aro yo'lida qoldim mano.

Ushbu misralarda Allohnинг sifatlari tilga olinganligini körishimiz mumkin. Gunohimdan uyatdaman rahm shavqatli ollohim, Menga shavqatingdan bersang oting Saxiyligindan dalolatdir, dargohinga yig'lab keldim rahmdil Ollohim degan mazmun kelib chiqadi va Ollohnинг sifatlari madh etiladi. Yana bir misrasida shunday deiladi:

Yetti yoshda Arslon bobni izlab topdim,
Har sir ko'rib parda birla bukib yopdi.

"Bob" arabchada "eshik" ma'nosini ifodalaydi, turk tilida esa islam dinini targ'ib qilishda fidoiylik ko'rsatganlarga nisbatan qo'llanilgan.

Xulosa

Xulosa o'mida aytish joizki, Ahmad Yassaviy Arslon Bobni o'ziga ustoz deb bilgan bo'lsa, O'rta Osiyo shayxlari, eshonlari Yassaviyni o'zlariga pir, ustoz deb biladilar. Yassaviy hikmatlarida Alloh inson borlig'inining eng oliy zuhuroti ekanligi ifoda etiladi. Zotan, Xudo dilda yashaydi. Bu dil ilohiy joziba kasb etmog'i uchun Alloh inoyati ila tubdan yangilanadi. Shundagina qalbda evrilish sodir bo'ladi. Bu -haqiqiy ishq. Arslon Bob va Ahmad Yassaviy esa ana shu ishqning haqiqiy sohiblaridir.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Haqqulov I. Ahmad Yassaviy "Hikmatlar". –Toshkent, 1991.-B. 8.
2. T.Qurbanov. Tarixiy badiiy asar va davr tili masalalari.-Toshkent, 2006.-B. 10.
3. B.Isabek. Yassaviy hikmatlari lug'ati. -Toshkent, Akademnashr. 2022, -B. 16.
4. Tursunov U., O'rionboyev B., Aliyev A. O'zbek adabiy tili tarixi.-Toshkent, 1995. - B.26.